

XULQ OG‘ISHI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

To‘rayev Ozod Uyg‘un o‘g‘li

Turon universiteti Pedagogika va Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola xulq og‘ishini murakkab ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ko‘rib chiqadi. Maqolada xulq og‘ishlarining psixologik va ijtimoiy sabablari, shuningdek, ularning turli xil turlari batafsil tahlil qilinadi. Maqolada kompleks yondashuv va turli sohalar hamkorligining ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Xulq og‘ishi, ijtimoiy-psixologik muammo, biologik omillar, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, jinoyatchilik, giyohvandlik, alkogolizm, o‘z joniga qasd qilish, ijtimoiy og‘ishlar, profilaktika, davolash, kompleks yondashuv, jamiyat, shaxs, oila.

Xulq og‘ishi – bu jamiyatning qabul qilingan me’yor va qoidalariga mos kelmaydigan xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishidir. Bu nafaqat shaxsning o‘ziga, balki uning yaqinlari, jamiyat va butun davlatga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ijtimoiy-psixologik muammo hisoblanadi. Xulq og‘ishlari turli shakllarda va og‘irlik darajalarida namoyon bo‘lishi mumkin, shuning uchun ularni tushunish va oldini olish uchun kompleks yondashuv zarur.

Deviant so‘zi - lotincha — “deviatio” so‘zidan olingan bo‘lib, chekinish, buzilish degan ma’noni anglatadi. Deviant xulq-atvor - mavjud jamiyatda o‘rnatilgan axloq me’yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, o‘g‘irlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda deviant xulq-atvorning asosiy shakllariga jinoyatchilik, alkogolizm, fohishabozlik, giyohvandlik va o‘z joniga qasd qilish kiradi[1, -284 b.].

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda “og‘ishgan xulq” atamasi ko‘pincha deviant axloq (deviatio – lotin tilida “og‘ishgan”) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o‘zaro bir-birining o‘rnini to‘ldiruvchi sifatida har ikkala atamani ya’ni, “og‘ishgan”, “deviant” so‘zlarini qo‘llaymiz. Bunda birinchi atama ilmiy, aniq va o‘rganilgan bo‘lgani sababli ko‘proq afzal ko‘riladi. O‘rganilayotgan tushunchaning murakkabligi hamda, uning fanlararo xarakterga ega ekanligini ta’kidlash o‘rinlidir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi[2, 75-81 b.].

Birinchi, deviant xulq “rasman o‘rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me’yorlarga mos kelmaydigan muomala va inson harakati” ma’nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi, “Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllarga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o‘rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo‘lgan me’yorlar va umidlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko‘rinish” – ma’nosida u sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi.

Shaxs xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o‘ziga xos jihatlari, ya’ni sog‘lom va nosog‘lomligiga, individning fe’l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy me’yorlar va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo‘rayib borishi kabilarga bog‘liq bo‘ladi.

Xulq-atvorning buzilishi terminologiyada ham, atamaning o‘zi tarkibida ham, odatdagi xatti-harakatlar bilan bog‘liqlikda ham noaniq tushuncha hisoblanadi. Terminologiya nuqtayi nazaridan “buzilgan xatti-harakatlar” ko‘pincha, “g‘ayritabiiy xatti-harakatlar”, “affektiv sohasidagi buzuqliklarga ega bola”, “deviant xatti-harakatlar”, “huquqbuzarlik xatti-harakatlari”, “noqonuniy, jinoiy harakatlar” iboralar bilan sinonim hisoblanadi. Ammo nomlangan atamalarda bir tomonlama ma’lumotlar mavjud: kundalik turmushdagi og‘ishlar (tarbiyasi qiyin bola), qonuniy harakatlardan og‘ishlar (jinoiy xatti-harakatlar) va boshqalar[3, -163 b.].

Xulq-atvorning buzilishi - bu insonning ichki istagini amalga oshirishining tashqi belgilangan harakatlar normasidan chetga chiqishidir. Bu istaklarning amalga oshishi amaliy harakatlarda (xatti-harakatlarning haqiqiy buzilishi) va bayonotlarda (xatti-harakatlarning ogʻzaki buzilishi) namoyon qilishi mumkin.

Xulq-atvor buzilishini tasniflash uchun turli asoslar mavjud. Ijtimoiy oriyentatsiya nuqtai-nazaridan ular quyidagilarni ajratib koʻrsatadilar. Ijtimoiylashgan antisotsial xatti-harakatlar va sotsializatsiya qilingan tajovuzkor xatti-harakatlar. Vayronkor yoʻnalish nuqtai-nazaridan xulq-atvor buzilishining quyidagi turlari ajratiladi: bitta agressiv tip; guruh tajovuzkor turi; itoatsizlik va namoyishkoronalik shaklida xatti-harakatlarning buzilishi.

Ijtimoiy va psixologik mezonlarga asoslanib, A.G. Ambrumova, L.Y. Jezlov bolalar va oʻspirinlarda buzilishlarning toʻrtta asosiy turini ajratib koʻrsatdi.

Antisotsial (ijtimoiylashuvga zid);

Intizomga qarshi;

Huquqbuzar (noqonuniy);

Autoagressiv.

A.A. Aleksandrov oʻspirinlarda xatti-harakatlarning buzilishini uch guruhga ajratadi: reaktiv shartli (uydan qochish, oʻz joniga qasd qilish); shaxsning past axloqiy va intizomiy darajasi (huquqbuzarliklar, alkogolizatsiya) tufayli kelib chiqadigan harakatlar[4, -834 b.].

V.T. Kondrashenko xulq-atvorining buzilishini, shu jumladan, sogʻlom odamning xatti-harakatlaridagi ogʻishlarni (deviant xulq-atvor) va asab-psixiatrik kasalliklarda (moreopatiya) xatti-harakatlarning buzilishini ajratib qoʻyadi. Ruhiy kasallikdagi xatti-harakatlarning buzilishi psixotik boʻlmagan (shaxsning buzilishi, aqliy zaiflik, asab-psixiatrik kasalliklar) va psixotik (shizofreniya, epilepsiya, reaktiv psixoz va boshqalar) ga boʻlinadi[5, -1368 b.].

Inson xulq-atvorining shakllanishiga taʼsir qiluvchi uchta asosiy omil guruhi mavjud: biologik, ijtimoiy va psixologik. Zamonaviy psixologiya xulq-

atvorni makon va zamonda rivojlanib boruvchi jarayon deb biladi. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari: ehtiyojni realizatsiya qilish, motivning paydo bo'lishi va shakllanishi, maqsadni ishlab chiqish, unga erishish yo'llarini tanlash, rejalashtirilgan harakatlarni, kerakli va amalga oshuvchi natijalarni bashorat qilish, qarorlar qabul qilish, xatti-harakatlarni nazorat qilish va tuzatishdir.

Shaxs psixologiyasi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – shaxs xulq-atvori va harakatlari ortida nima yotganligini aniqlashdir. Har qaysi shaxsning ichki olami mavjud. O'zining shaxsiy tasavvurlari, emotsional reaksiyalari, his-kechinmalari va aniq harakat obrazlariga shaxs doim ega bo'lib kelgan. Bu kabi xatti-harakatlar qanday qonunlar asosida amalga oshiriladi? Bu kabi savollarga javob shaxsning ichki olamini u yoki bu tarafdin yoritilishiga bog'liqdir.

Shaxsiyatning noto'g'ri shakllanishi, psixologik travmalar, past o'ziga ishonch, depressiya, xavotir va boshqa ruhiy kasalliklar xulq og'ishlariga sabab bo'lishi mumkin. Noto'g'ri tarbiya uslubi, oilada zo'rvonlik yoki e'tiborning etishmasligi ham muhim rol o'ynaydi. Kam daromadli oilalarda o'sish, ijtimoiy tengsizlik, ishsizlik, kam ta'minlanganlik, jinoyatchilik darajasining yuqoriligi, yomon do'stlar ta'siri va boshqa ijtimoiy omillar xulq og'ishlarini kuchaytirishi mumkin. Kam ta'minlangan oilalardagi bolalar ko'pincha ijtimoiy moslashuv qiyinliklariga duch kelishadi va bu xulq og'ishlarining sababi bo'lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy bosim va stereotiplar ham xulq og'ishlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda xulq og'ishi – bu murakkab ijtimoiy-psixologik muammo bo'lib, uning oldini olish va bilan kurashish uchun davlat, jamiyat va har bir shaxsning harakatlari zarur. Kompleks yondashuv va turli sohalarning hamkorligi gina samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Бандура А., Уолтерс Г. Подростковая агрессия. – М., 2005. – 284 с.
2. Барановский Н.А. Пьянство как социальная проблема и стратегия антиалкогольной политики в Беларуси / Н.А.Барановский // Социология.– 2012. – №2.–С. 75–81.

3. Беличева С.А. Основы превентивной психологии / С.А.Беличева. – М.: РИЦК Социальное здоровье России, 2004. – 110 с.
4. Белкин А.С. Отклонения в поведении школьников/ А.С.Белкин. – М: Вильямс, 2006. – 163 с.
5. Большая энциклопедия психологических тестов. – М.: Эксмо, 2012. – 834 с.
6. Бэрон Р., Ричардсон Д. Агрессия.– СПб.: Питер, 2012. – 368 с.
7. Волков Ю.Г., Добреньков В.И., Кадария Ф.Д., Савченко И.П., Шаповалов В.А. Социология молодежи: Учебное пособие. – Ростов н/Д: Феникс, 2001. – 576 с.